



ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANIDA PAREMALARNING BADIY-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Norova Sh.B.

Nizomiy nomidagi TDPU katta o‘qituvchisi, PhD

Tayanch so‘zlar: badiiy matn, parema, maqol, matal, paremik birlik, aforizmlar.

Ключевые слова: художественный текст, парема, пословица, мата, паремическое единство, афоризмы.

Key words: artistic text, parema, proverb, matal, paremic unity, aphorisms.

Parema, paremiya (yunoncha paroimia-masal, ramzli hikoya) ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan turg‘un ibora, maqol, matal. [3:222] Badiiy tilimiz tasviriy ifodalar, hissiy bo‘yoqdor so‘zlar va qochirimlarga boy. Binobarin, badiiy tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli individual shaxs yoki ijodkor tafakkuri va tuyog‘usining natijasidir. Til qalb oynasidir. Bu ko‘zguning qanchalar go‘zal, beg‘ubor va betakror ekanligi xalq tili imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanib, obrazli badiiy tasvir yarata olishda namoyon bo‘ladi.

Asqad Muxtor asarlarining tilixalq tiliga yaqinligi, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ijodiy foydalana olishi, ayniqsa, maqol qo‘llash san’ati, xalq maqollarining o‘ziga xos va betakror yangi ma’no qirralarini kashf eta olishi, asarning estetik qiymatini oshirishdagi maqol va matallarning o‘rni beqiyosdir. Shu o‘rinda yana bir holatni aytmay bo‘lmaydi. Agar XI asrda yashab ijod etgan buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” asarida 400 ga yaqin, Muhammad Sharif Gulxaniy “Zarbulmasal” asari tarkibida 300 dan ortiq maqoldan samarali foydalangan bo‘lsa, Sulaymon Rojiy “Zarbulmasal”ida 400 dan ortiq maqoldan samarali foydalangan.

Bundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, badiiy asarda maqol va matallarni qo‘llash, asarga qo‘shimcha ma’no yuklashi yangilik emas.



“Xalqning tiynati va tabiatini, ruhiyati va mentallitetini tildan ayro holda tasavvur qilib ham, tadqiq etib ham bo‘lmaydi. Tildagi birliklarda, ayniqsa, obrazli so‘z, obrazli ibora – ifodalarda xalqning mental o‘ziga xosligi u yoki bu tarzda in’ikosini topadi. Zotan, bunday obrazli ifodalarda xalqning obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o‘laroq dunyoga keladi.” [1;3-8] N.Mahmudovning ushbu mulohazasini asar tilidagi paremiologik birliklarga ham aloqador deyish mumkin.

Maqol xalq orasida kun sayin tug‘ilib turganidek, ota bobolar so‘zi sifatida avlodlardan avlodlarga meros bo‘lib o‘tadi. Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo‘lgan axloqiy qoidalarning o‘ziga xos kodeksidir. Har bir maqol ham ma’no, ham shakl ham stilistik funksiyasi jihatidan o‘ziga xos xususiyatga egadir. Matal esa narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ifoda etiladigan nutqiy tarkibdir. Matal so‘zlovchining o‘z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Maqol bilan matal o‘rtasida umumiylik ko‘zga tashlanadi. Bu umumiylik shundan iboratki, har ikki tushuncha ham nutqni jonlantirish, jozibador va obrazli qilish fikrni tayyor nutq qoliplari, formulalari bilan ifodalash uni mazmundor qilishga qaratilgan bo‘ladi. Asqad Muxtor asarlarining tilida ham paremalarning o‘ziga xos ko‘rinishlarini uchratish mumkin bo‘lib, har bir paremik birlik asarga estetik jilo, qo‘shimcha ma’no yuklagan. Biz quyida shu paremalarning qo‘llanishi va semantik xususiyatlarini tahlil qilishga urinib ko‘ramiz.

Adabiy til doirasida va shevalarda faol qo‘llanadigan paremik birliklar xalqimiz tarixida qadimdan qo‘llangan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham faol ishlatiladi.

Masalan: *”Orif aka ko‘p joyda mas‘ul ishlarda ishladi. Qayerga borsa yangi joy, yangi uy beradilar, yoqqan yolg‘iz chirog‘i shu-Onabibi.”*

Asar bosh qahramonlaridan biri Orif butun hayotini yurt tashvishiga bag‘ishlagan rahbar inson. Xotini Saragul bilan bir necha yil turmush qilganiga qaramay farzand ko‘rmagan edi. Xotini tug‘ruq paytida vafot etgan dugonasining chaqalog‘ini ko‘tarib keladi. Shu bilan oilaning ovunchog‘i bo‘lib qoladi bu qizaloq. Yozuvchi asarni yozar ekan, asarda qo‘llagan har bir jumla yoki birlikni shunchaki keltirmaydi. Bizga ma’lumki, o‘zbek xalqi bolajon, farzandi uchun yashaydigan xalq hisoblanadi. Milliy mentalitetimiz, qadriyatlarimiz asosida shakllangan, ”orqamda qoladiganim”, ”chirog‘imni yoqadigan yodgorim”, ”tepib-tepkilab ko‘madiganim” kabi turg‘un birikmalar mavjud. Yozuvchi bu o‘rinda qahramonning vatanga fidoyiligi bilan birga yagona suyanchig‘i bo‘lgan Orifning qizalog‘i Onabibini ”yolg‘iz chirog‘” sifatida tasvirlagan. O‘zbek xalqida ota-onadan keyin uni eslaydigan farzandlarining borligi,

yashagan uyining chirog‘i o‘chmasligiga ishora sifatida bu kabi maqol va matallar keltiriladi.

“Uni Saragul o‘z o‘rniga shuning uchun tashlab ketgandek. Qiziq, ona suti bilan kirar ekanmi, qiliqlari, yurishlari doim Saragulni esga soladi.”

O‘zbek xalqi juda tiyrak so‘zlarni eng sarasini qo‘llaydigan xalq desak adashmaymiz. Har bir xalq tomonidan yaratilgan maqol va matallarda bir necha ming yillik tajriba hikmat yotadi. Xalqimizda, ”Tug‘ma aql bo‘lmasa, Turma aql kor qilmas; Zotida bo‘lmaganni, zotli qilib bo‘lmas;

Aslida bo‘lmagan – asil bo‘lmas” [4; 300] kabi maqollar mavjud. Bu maqollar zamirida zotida, aslida kishining aqli, fahm-farosati bo‘lmasa, unga ming o‘rgatganing bilan foydasi yo‘q, baribir kor qilmaydi degan ma’no kelib chiqadi. Adib asarning jajji qahramoni Onabibini tasvirlar ekan, o‘quvchiga uning tiyrakligini, donoligini aytishdan charchamaydi. Asar qahramoni Orif qizining har bir harakatida marhum xotinini ko‘rgandek bo‘ladi go‘yo. Chunki Saragul bu qizaloqni dunyoga keltirmagani bilan, uni oq suti bilan emizgan, ya’ni bu yaxshi xislatlar ona suti bilan kirgan demoqchi yozuvchi. Xalqimizda, Ona suti bilan kirmagan aql, tana suti bilan kirmas kabi maqollar ham shunga ishora qiladi. Bu yerda tana ma’nosida sog‘in sigir nazarda tutilgan.

“-Ahvoliga nima bo‘libdi: Oq uy-ola bargak. Arz qilishgandirda. Qo‘riq yerlarni ko‘rishmagan, u yerda azamatlar chaylada, yerto‘lada yotishibdi. Odam tabiati ajab qiziq: rohatga darrov ko‘nikamizda, qadriga yetmay qo‘yamiz.

Adib har bir til vositasidan foydalanar ekan, u maqol bo‘ladimi yo matalmi, iborami personaj tilidan xalqning dardini aytishga harakat qiladi. Biz bilamizki, bu romanda sovet tuzumi davridagi siyosiy o‘yinlar, xalq dardi, “kolxozlashtirish”, ”sovxozlashtirish”ning og‘ir oqibatlarini, o‘zbek xalqning chekkan zaxmatlari ochib beriladi. O‘sha tuzumning “egalari” bo‘lgan Ziyoxonovga o‘xshagan personajlar qattiq qoralanadi. Asar qahramoni bo‘lgan Orifning raykomning sobiq sekretari bo‘lgan Ziyoxonov bilan suhbatidan olingan bu parchada adib “Oq uy-ola bargak” maqolini qo‘llagan bo‘lib, bu turg‘un birikma orqali, Ziyoxonovning naqadar xalq dardiga befarqligini, xalq dardida kuyunib so‘zlayotgan Orifning so‘zlariga befarqlarcha munosabat bildirishi, o‘sha davr tuzumining og‘riqli nuqtalarini ochishga xizmat qilgan.

O‘zbek maqollarining izohli lug‘atini kuzatar ekanmiz, ushbu maqolga yaqin ma’noli bo‘lgan bir nechta maqollarni uchratamiz. ”Oq uyda bo‘lgan kishi olachiqda ham bo‘ladi”; “Oq uyim, qoq uyim, tevarak chetiga boq uyim” kabi yuqoridagi maqolning variantlari keltirilgan. Izohli lug‘atda “Oq uy – ustiga oq kigiz yopilgan o‘tov. Bunday o‘tov odatdagi o‘tovlardan katta (to‘rt, besh, olti, hatto yetti qanotli – ya’ni kerakali) bo‘lar va unda xonu beklar,



ko'chmanchi chorvadorlarning katta boylari istiqomat qiladi" [4:336] deyilgan. Adib Ziyoxonov kabi salbiy personajlarning ruhiyatini ochib berish, xalq dardiga panja ortidan qaraydigan o'sha davr korchalonlarining xalqqa bo'lgan munosabatini birgina maqol orqali yorqin ochib bergan.

- *Xalq... haligi Ubaydullaxonmi? Menga qara Maryam,- Orif aka uning orqasidan ergashdi,- xalqning dilidagi u yoqda tursin, o'z vijdoniga ham xilof gapiradiku.O'zi bilan gaplashsangiz:"It yotish-mirza turish....",majlisda bo'lsa,"Sher o'mrovli vatanparvar!..."Bu o'zimiz tarbiyalagan shunday bir toifa odamlarki...*

Xalq maqollarini kuzatar ekanmiz, jonivorlar bilan bog'liq maqol va matallarni juda ko'p kuzatamiz. "It ham yotar joyini quyruq'i bilan supuradi"; "It hurar - karvon o'tar"; "It egasiga hurimas..." kabi bir qancha maqol va matallar xalq orasida qo'llanilib kelinadi. Yuqorida yozuvchi It yotish - mirza turishmaqolini qo'llab, gapi boshqa ishi boshqa bo'lgan sovet tuzumining laganbardorlari obrazi, sovxozning klub mudiri Ubaydullaxonni qoralaydi. Dili boshqa tili boshqa insonlar ustidan istehzoli kulib, yashashi bir ahvol bo'la turib o'zini "sher"ga o'xshatgan qahramonning holatini yoritishda maqoldan o'rinli foydalanadi."Mirza" leksemasi bizga ma'lumki xonlar saroyida faoliyat yuritadigan amaldorlardan biri. Xalqimiz tomonidan qoldirilgan maqollar qochirimlarga, chuqur ma'noga boyligi bilan ham o'ziga xosdir.Bu maqola ham asardagi qahramonlarning portretini chizishda turg'un birikma sifatida yetarlicha xizmat qilgan.

Onabibi hassos qiz. Go'zallikdan zavqlana biladi.Temir bo'sa quruq mulohazachi.Gulni ko'rsa tomosha qilish yo hidlash o'rniga santimetr lab o'Ichay boshlaydi. Shuning uchun ham ular bir-birlariga zarur bo'lsalar kerak. Shuning uchun ham ikkalasi ham yaxshi. Biri bo'lmasa biri bo'larmidi?"Ikki yorti bir butun", deydi Orif aka o'zicha xayolchan jilmayib.

Adib har bir so'zni har bir jumlaning besabab ishlatmaydi, albatta. Adib hassos va o'z dunyosiga ega bo'lgan asar qahramoni Onabibining go'zal ichki dunyosini ochib berish bilan birga, uning mutlaqo aksi bo'lgan o'smir yigit Temirning his-tuyg'ulardan ko'ra aniqlikni yaxshi ko'rishini ta'kidlar ekan, bu ikki dunyo egasining bir butun bo'lishi uchun uchrashgan deb hisoblaydi.Biri-birini to'ldirib turuvchi bu ikki yoshning bir-biriga bo'lgan mehrini tasvirlash bilan birga, butunlay bir-biriga aks fikrlaydigan bu ikki yoshni bir-birini to'ldirib turganini zavq bilan tasvirlar ekan,"Ikki yorti bir butun" maqolini keltirish bilan birga adibning aytmoqchi bo'lgan fikri yanada oydinlashadi.

Maqollar haqidagi adabiyotlarni o'rganar ekanmiz yuqoridagi maqolning xalq tiliga qanday kirib kelgani quyidagicha izohlanadi: *"Bu maqolni*



dehqonlar ko'proq tuyshak qilganlarida aytganlar.Tuyshak shunday bo'ladi; bir dehqonning bir ho'kizi bor.Yer haydash uchun esa ikki ho'kiz kerak.Shunda u o'ziga o'xshagan yakka ho'kizlik dehqon bilan bitishadi-da,ho'kizni juft qilib yerini haydab oladi. Keyin u dehqon ham buning ho'kizidan foydalanib,yerini haydab oladi.Shunday qilib ikkalasining ham ishi bitadi.Majozi:bir odam muayyan ishning bir tomonini biladi-yu. Bu tomonini bilmaydi. Demak ikkalasi ham "yarimta" odam.Agar ular qo'shilishsa,bir butun bo'lib,ishni bitkazishadi. "Maqol zamirida kishilarni birlashishga da'vat etuvchi fikr yotadi." [4:151-152] Asqad Muxtor doim xalqona so'zlarni, xalqchil iboralarni doim topib aytishini yana bir bor guvohi bo'ldik.

Xulosa qilib aytganda, Asqad Muxtor asarida xalq maqollari va matallaridan unumli foydalangan holda asarning badiiy qimmatini oshirishga erishgan va ijodkor o'z o'z ustida tinimsiz ishlagani, xalq og'zaki durdonalarini, xususan, barqaror birikmalarning xilma-xil shakllarini yaxshi o'zlashtirganidan dalolatdir.

Adabiyotlar:

1. A.Muxtor "Chinor" romani . "Yangi asr avlodi": Toshkent, 2018 y
2. H.Махмудов.Ўшатишлар ва миллий образ.// Ўзбек тили ва адабиёти №1, 2013.Б 3-8
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, учинчи жилд, Н-Тартибли,Т., 2007. Б-222
4. Шомаксудов.Ш., Ш.Шорахмедов. "Ҳикматнома" Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати, Ўзбек совет энциклопедияси. Тошкент: 1990,151-152- Б

РЕЗЮМЕ

Maqolada badiiy matnda qo'llanilgan paremlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari Asqad Muxtorning "Chinor" romani misolida ochib berilgan. Asqad Muxtor asarlarining tili xalq tiliga yaqinligi, xalq og'zaki ijodi namunalaridan ijodiy foydalana olishi, ayniqsa, maqol qo'llash san'ati, xalq maqollarining o'ziga xos va betakror yangi ma'no qirralarini kashf eta olishi, asarning estetik qiymatini oshirishdagi maqol va matallarning o'rni beqiyos ekanligi maqolada yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье на примере романа Аскада Мухтара «Подорожник» раскрываются параметры, используемые в художественном тексте, и их специфика. В статье подчеркивается, что язык произведений Аскада Мухтара близок к народному языку, он может творчески использовать примеры народного творчества, особенно искусства использования пословиц, может открывать уникальные и неповторимые новые значения народных пословиц, а также роль пословиц и маталов в повышении эстетической ценности произведения бесподобны.

SUMMARY

Using the example of Askad Mukhtar's novel "The Plantain," the article reveals the parameters used in the literary text and their specificity. The article emphasizes that the language of Askad Mukhtar's works is close to the folk language, he can creatively use examples of folk art, especially the art of using proverbs, can discover unique and inimitable new meanings of folk proverbs, as well as the role of proverbs and matalos in increasing the aesthetic value of a work is incomparable.